

## MUSIQALI TEATR REJISSORLIGI

**Sultonov Dostonbek**

*O'zDSMI FMF "Dramatik teatr rejissorligi" 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Rejissyorlik sahna asari yoki kinofilm yaratish jarayonida ijodiy xodimlar – aktyor, yakkaxon, rassom, kompozitorga (kino va televideniya operatorlarga ham) va yordamchi xodimlarga rahbarlik qiladi. Rejissyorlik san'ati drama teatrida pyesa tanlash, uning g'oyasi, janr va badiiy xususiyatlari, tasvirlanayotgan davr, muallifning ijodiy uslubini o'rganishdan boshlanadi.*

**Kalit so'zlar:** *teatr, kino, telefilm, sirk va estradada.*

**Rejissyorlik san'ati, rejissyor** – garmonik bir butun va muayyan yaxlitlikka ega bo'lgan tomosha, ko'rinish yaratish san'ati.

Rej. asar talqini uchun saxna vositalarini izlaydi, har bir personaj harakteri va umuman, spektakl talabiga monand aktyorlar tanlaydi, sahnaviy ritm va sur'atni belgilaydi, mizansahnalar yaratadi, rassom va kompozitor bilan hamkorlikda asarni badiiy bezash prinsiplarini ishlab chiqadi. Realistik spektakldagi yaxlit va chuqur xaqqrniylik bir-biri bilan uzviy bog'langan „uch haqiqat“ (hayotiy, ijtimoiy va saxnaviy) asosida yaratiladi (V. I. NemirovichDanchenko). Agar rejissyor ulardan birini e'tibordan chetda krlDIRsa, boshqalari ishonarli chiqmaydi. Rejissyorlik san'atida aktyor bilan ishlash muhim o'rin tutadi. Rejissyorlik san'atisahna ijodining mustaqil turi sifatida ajralib chiqquniga qadar, sahnalashtiruvchi vazifasini muallif, yetakchi aktyorlar bajargan.<sup>26</sup>

Uyg'onish davrida Yevropada sayyor professional teatr bilan birga muallif, aktyor va rejissyor vazifalarini o'tagan truppa rahbari ham yuzaga keldi. 16–17-asrlarda Rejissyorlik san'atining rivojiga U. Shekspir, J. Molyer, Lope de Vegalar muhim qissa qo'shgan. Burjua ma'rifatparvarligi davrida Rejissyorlik san'ati nazariyasi yaratila boshladi (Gotthold Ephraim Lessing, Denis Diderot). G. Lessingning izdoshi F. L. Shreder Gamburg teatrida birinchi bo'lib, aktyor o'z rolinigina emas, pyesani ham to'liqo'rganishini joriy etdi. Bu prinsiplarni F. Talma (Fransiya) davom ettirib, Rejissyorlik san'atida klassitsizmdan romantik teatr tomon burilish yasadi.

Rejissyorlik san'ati yuzaga kelishida 19-asrda Meyningen teatri rejissyorlari (L. Kornek va boshqalar) muhim rol o'ynadi. Muallif matniga ehtiyotkorlik bilan

---

<sup>26</sup> Boltaboeva, U. (2021). The Art of Directing: Composition and Scales. International Journal of Culture and Modernity, 11, 16-24.

qarash, tarixiy muqitni aniq aks ettirish, ommaviy sahnalarning uyg'unligiga erishish Meyningen rejissurasining ijobiy tomonidir.

20-asr boshlari G'arbiy Yevropa Rejissyorlik san'atida formalistik oqimlar hukmron bo'ldi (E. Kreg – Angliya, M. Reynhardt – Germaniya, A. Appia – Shveysariya va boshqalar). 20-asrda G'arbiy Yevropa Rejissyorlik san'ati rus rejissurasi (K. S. Stanislavskiy, V. I. Nemirovich Danchenko, Ye. B. Vaxtangov, V. E. Meyerxold, A. Ya. Tairovlar) ta'sirida rivojlandi.

Rejissyorlik san'ati unsurlari o'zbek an'anaviy teatrida paydo bo'lgan. U korfarmon deb atalgan. 1914-yildan o'z faoliyatini boshlagan yevropa shaklidagi o'zbek teatrida yozma drama asosida ish olib boruvchi va o'z spektakllarini bino ichida sahnada ko'rsatilishiga mo'ljallab tayyorlovchi malakali rej.lar yetishib chiqa boshlaydi. Rejissyorlik san'atining shakllanish jarayoni A. Avloniy, Hamza, M. Majidov (Uyg'ur) faoliyati bilan bog'liq. Dastlabki sahna asarlari ma'rifatchilik, targ'ibottashviqot ruhida talqin qilingan. Voqelikni hayotiy vositalar bilan naturalistik yoritish (saxnada rasmana uylar qurish, bug'i chiqib turgan ovqat, mevacheva ishlatish, buyumlardan foydalanish kabi), personajlar harakterlarini bo'rttirish, ijobiy qahramonlarni birinchi planda ko'rsatish bu davrda Rejissyorlik san'atiga xos xususiyatlardir. Moskvada ochilgan o'zbek drama studiyasida M. Uyg'ur, Ya. Bobojonov M. Muhamedovlar aktyorlik mahorati bilan birga Rejissyorlik san'ati asoslarini ham o'zlashtirganlar. Ular o'sha davr rus teatrida hukmron bo'lgan barcha ok, imlarga katta qiziqish bilan qaragan. Ayniqsa, ularga Ye. Vaxtangov va V. E. Meyerxold rej.lik uslubi kuchli ta'sir ko'rsatgan. Mannon Uyg'ur boshliq eng yaxshi rej.lar badiiestetik jihatdan e'tiborli, realistik, kechinma, histuyg'ularga asoslangan sahna asarlari („Hamlet“, „Boy ila xizmatchi“ singari) yaratish yo'lidan borib, o'zbek rej.lik maktabiga asos soldilar. Sh. Qayumov, A. Turdiyev, J. Obidov, 3. Madaliyev, V. Fayozov, X. Mustafokuqulov kabi atokdi aktyorlar ham Rejissyorlik san'ati rivojiga o'z hissalarini qo'shganlar. Opera teatrining tarkib topishi va taraqqiyotida rej.lardan M. Muhamedov bilan E. I. YungvaldXilkevichning xizmati katta. Hozirgi o'zbek milliy akademik drama teatri, Muqimiy teatri taraqqiyotida N. V Ladigin, A. O. Ginzburg, I. V. Radun, ayniqsa, R.Hamroyev va T.Xo'jayevlar o'rni salmokdi bo'lib, drama, musiqali drama janrlarining professional darajaga ko'tarilishi uchun ko'p kuch sarf qilishgan.

60-yil larning oxirlaridan rejissyor E.Masofoyev bir guruh aktyorlar bilan „Yosh gvardiya“ (hozirgi Abror Hidoyatov nomidagi teatr) teatrini tashkil etib, poetik teatr yaratishga bel bog'laydi.

70-yillarning boshlarida teatr sahna madaniyati Yevropa darajasiga ko'tarilib, aholi ma'naviy hayotida muhim o'rin egallaydi. Bu davrda rej.lardan

B.Yoʻldoshev, M.Ravshanov, M.Niyozmatov, R. Hamidov, K. Yoʻldoshev, B. Ixtiyorov va boshqa ish boshladi. Ular turli janrdagi asarlarni saqnalashtirish asosida murakkab uslubiy vazifalarni bajarishga kirishadilar, hayot haqiqatini, inson ichki dunyosini ochishda turli vositalarni ishga solib, badiiy yaxlitlikka erishadilar.

70-yillarning oxiri – 80-yillarning boshlarida Rejissyorlik sanʼati oʻzbek teatrini ichdan yangilashga erishadi, eski mavzular, teatr ijrochiligi ham yangicha jaranglay boshlaydi. Ayniqsa, 80-yillar studiyachilik harakati kuchayib, teatrning badiiy salohiyati oshadi. Yosh rej.lar M.Vayl, N. Abdurahmonov, A.Abdunazarov, O. Salimov izlanishlari eʼtiborli boʻldi. Oʻzbekistonning mustaqilligidan soʻng teatr sanʼatida ham tub oʻzgarishlar roʻy berdi. Sahna vositalari bilan tarixni yoritish buyuk ajdodlarimiz – allomalar, shoirlar va davlat arboblari shaxslarini gavalantirishga eʼtibor kuchaydi. Zamonaviy mavzularni aks ettirishda esa milliy vositalar keng qoʻllana boshladi. Balet asarlarini sahnalashtirishni baletmeysterlar bajaradi, rej.lar ularga yordam berishadi. Balet baletmeysterlari orasida I.Yusupov faoliyati diqqatga sazovor.<sup>27</sup>

Rejissyorlik sanʼati opera (shuningdek, musiqali drama va operetta)da musiqali teatr xususiyatlariga tayanadi. Bu yerda spektaklning asosini musiqa tashkil qilganligi uchun rejissyor dirijyor va xormeyster bilan hamkorlikda ish olib boradi. Kompozitor partiturasining sahnaviy talqini musiqali teatr rejissurasining asosiy xususiyatidir.

Rejissyorlik sanʼatida qoʻgʻirchoq rejissyorligi alohida ajralib turadi. Respublika qoʻgʻirchoq teatri (Toshkent, 1939-yilda tashkil topgan), undan keyin Andijon, Samarqand, Buxoro, Jizzax, Qarshi, Xiva, Termiz sh.larida barpo etilgan qoʻgʻirchoq teatrlarida unlab rej.lar bu sanʼatning saviyasini kutarish, nainki bolalar orasida, balki kattalar orasida ham uning nufuzini oshirishda uz hissalarini qushmokdalar. Qoʻgʻirchoq teatri rejissurasining rivojlanishida I. Yoqubov, M. Ashurova, SV. Iogelson, Sh. Yusupov kabi rej.larning xizmatlari alohida. Radio va televideniya ham uziga xos Rejissyorlik sanʼati vujudga kelgan. Mustaqillik iillarida maydon tomoshalari rej.ligi shakllandi. Bu sohada faoliyat koʻrsatayotgan B.Yoʻldoshev, R.Hamidov, N.Otaboyev va boshqa katta maydon va amfiteatrlarda tomosha qoʻyish boʻyicha katta tajriba orttirishdi.

Kinoda Rejissyorlik sanʼati milliy kino shakllanishi bilan bogʻliq holda rivojlana bordi. Oʻzbek ovozsiz kinosining dastlabki iillarida mahalliy hayotning

---

<sup>27</sup> Болтабоева, У. (2021). Бўлажак актёрларни тарбиялашда педагогик ёндашувлар. *Oriental Art and Culture*, 2(3), 88-98.

o‘ziga xos tomonlarini yaxshi bilmaydigan, o‘z oldiga badiiy jihatdan jiddiy vazifa qo‘ymagan rej.lar filmlar qo‘ydi.

30-yillarning boshlarida milliy san‘at arboblari (N.G‘aniyev, S. Xo‘jayev, Y. A‘zamov)nmnt rejissuraga kirib kelishi munosabati bilan xalq hayotining turli jabhalarini chuqur o‘zlashtirish, ijodiy qayta ishlash, uslubiy janr izlanishlar boshlandi. „Yuksalish“, „Ajoyib ish“, „Ramazon“, „Tong oldidan“, „Yigit“, „Qilich“ singari filmlar ishchilarning mehnat kundaligi, harbiy ish, dehqon harakati, o‘lka tarixiga bag‘ishlandi. Rej.lar mahalliy aktyorlar (O. Jalilov, E.Hamroyev, M.Qayumov, S.Iskanderov va boshqalar)dan foydalanishni yo‘lga qo‘ydilar.

Haqiqiy milliy kinorejissuraning yuksalish davri 40–50-yillar bo‘ldi. O‘sha yillar Ya. Protazanov, A.Usolsev – Garf, N.G‘aniyev, K.Yormatov, Z.Sobitov, Y.A‘zamov kabi rej.lar „Tohir va Zuhra“, „Nasriddinning sarguzashtlari“, „Alisher Navoiy“, „Paxtaoy“, „Boy ila xizmatchi“, „Stadionda uchrashamiz“, „Amirlikning yemirilishi“ kabi yetuk filmlar bilan tanildilar. Shu davrda o‘zbek kinorejissyorlarining obro‘si respublikadan tashqariga ham yoyildi. 60-yillar milliy kinorejissurada sifat jihatdan yangi davr boshlandi, „O‘zbekfilm“ga yangi yosh mutaxassislar (D.Salimov, R. Botirov, Yu. Stepchuk, A. Qobulov, Q. Kamolova va boshqalar) kelib qo‘shildi. „Sen yetim emassan“, „Laylak keldi, yoz bo‘ldi“, „Yoryor“, „Surayyo“, „Toshkent–non shahri“ filmlari shu davrda yaratildi. Rejissuradan yangi – zamonaviy mavzu, yoshlar mavzusi keng o‘rin oldi („Nafosat“, „Sevishganlar“, „Yigit va qiz“, „Mahallada duvduv ran“) va boshqa Shuningdek, keksa avlod rejissyorlarining yangi izlanishlari ko‘zga tashlanadi („Maftuningman“, „Furqat“, „Fidoiy“, „Natashaxonim“ kabi).

Rej.larning professionallik jihatidan yuksaklikka ko‘tirilishi turli mavzu va janrda ijod etishga keng yo‘l ochdi. „Abu Ali ibn Sino“, „Dahoning yoshligi“ (rej. E.Eshmuhammedov), „General Rahimov“ (3. Sobitov), „Ulug‘bek yulduzi“ (L.Fayziyev), „Ikki dil dostoni“ (K.Yormatov), „O‘tgan kunlar“ (Y. A‘zamov) kabi filmlar o‘zbek kinosiga katta shuhrat keltirdi. „Abu Rayhon Beruniy“, „Achchiq danak“, „Seni kutamiz, yigit“ singari filmlar rejissurasi uchun kinofestival kabi anjumanlarda yuqori baholandi va sovrinlar bilan takdirlandi.

Hozirgi o‘zbek kinosi dramaturgiyasidagi murakkab jarayonlar bilan birgalikda turli mazmun va shakldagi janrlar izlanmoqda, rejissura характери o‘zgarmoqda, yangiyangi nomlar kashf etilmoqda (aktyorlikdan chiqqan rej.lar va boshqalar). J.Fayziyev, I.Ergashev, Yu. Sobitov, F.Haydarov kabilar shular jumlasidan. Zamonaviy o‘zbek kinosida yetakchi janrlardan bo‘lgan komediya („Siz kimsiz?“, „Mo‘jizalar maydoni“, „Yaratganga shukur“, „Bomba“, „O‘rtoq Boykenjayev“, „Meshpolvon“ va boshqalar) sermahsul bo‘lmoqda. „Otamdan



qolgan dalalar“ (Sh. Abbosov), „Sevgi“ (I.Ergashev), „Voiz“ (Yu. Rozikrv; festival bosh sovriniga ega bulgan), „Piyoda“ (R. Malikov) va boshqa sunggi yillar yaratilgan filmlardan namunalardir. Muhsin Qodirov, Jo‘ra Teshaboyev.<sup>[1]</sup>

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boltaboeva, U. (2021). The Art of Directing: Composition and Scales. International Journal of Culture and Modernity, 11, 16-24.
2. Болтабоева, У. (2021). Бўлажак актёрларни тарбиялашда педагогик ёндашувлар. Oriental Art and Culture, 2(3), 88-98.